

## SOMONNI O'RIB VA XASKASHLASH MASHINASI.

**CHoriyev Ravshan Mamarasulovich,**

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti.

[Tel:+998993565663](tel:+998993565663)

**Annotatsiya:** Maqolada somonli dalalarda, somon o'rish balandligini qayta rotorli o'rgichning sxemasi ishlab chiqildi, shuningdek ishchi organ pichog'i tig'ini qiyalik burchagini aniqlashga doir nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan

**Kalit so'zlar:** somonli dala, somon o'rish balandligini qayta o'rgich, yassi rotor, kesuvchi qirra, pichoq uzunligi soni.

**KIRISH.** Bugungi kunda O'zbekistonda eng ko'p chorva mollari uchun asosiy dag'al ozuqa sifatida somon ishlatilmoqda, chunki u juda mazzali va chaynash hamda hissiy funksiyalar uchun ozuqaviy ehtiyojni qondiradi. Xozir kunda somondan dunyo miqyosida ko'p davlatlarda dag'al ozuqa sifatida chorvachilik tarmog'ida foydalanmoqdalar. Sug'oriladigan maydonlarda bug'doy va arpa hosili g'alla o'rish kobaynlarida o'rib yig'ishtiriladi, bunda kombayn g'alla poyasini yerdan 15-18 cm balandlikda o'radi natijada dag'al ozuqa sifatida ishlatiladigan somonni 25-30 foiz hosili dalada qolib ketadi. Bug'doydan bo'shagan dalalarga qolgan somonni qayta o'rib somoni yig'ishtirisa qo'shimcha chorva mollari uchun oziqa olishda va qishloq joylarda istiqomat qilayotgan fuqoralarning bandligi, hamda daromatlarini ko'paytirishda muhim o'rin tutadi.

### **Adabiyotlar taxlili.**

Mavjud bo'lgan KRN -2.1 rotorli o'rish mashinasi. Ushbu rotorli o'rish apparati brus ko'rinishida bo'lib, uning ustiga rotor o'rnatilgan, ularning har biriga ikkita pichoq o'rnatilada. O'rish apparati gorizontal tekislikda ishlaydi. Ushbu o'rish apparati hosildorligi yuqori, yotib qolgan o'tlarni hamda somonni o'rish balandligidagi poyani

qayta o'rish uchun ishlatiladi. [1] Bu o'rish apparati somonni o'rib oladi, lekin sug'oriladigan sharoitdagi somonni etarli darajada o'ralmaydi, ya'ni o'rgichlarga qo'yilayotgan agrotexnik talablarga javob bermaydi.


Texnik ko'rsatkichlari va erishilgan natijasi bo'yicha taklif etilayotgan ixtiroga eng yaqini. O'rib xaskashlash mashinasi o'rgan o'tlarni ag'darish va uyumlash hamda g'aramlash uchun xizmat qiladi. Ushbu o'rish va xaskashlash mashinasini rotorlari V shaklida joylashtirilgan. Bu o'rish va xaskashlash mashinasini tekis relefli dala ishlash muljallangan. Bundan tashqari, uni don ekinlarining doni bo'lmagan qismini yig'ish uchun ishlatish mumkin emas.[3]

O'rish va xaskashlash mashinasini kamchiligi shundaki, u yerlari notekis bo'lgan dallarda donli ekinlarining doni bo'lmagan qismini o'rish va uyumlashda agrotexnik talablarga javob bermaydi.

### **Material va uslublar.**


Ixtironi maqsadi don ekinlarining don bo'lmagani, somonni yig'ish sifatini yaxshilashdir. Ixtiro qilayotgan mashina barmoq-g'ildirakli xaskash, rotorli o'rgich yunalishiga burchak ostida rostlaniladigan, undan tashqari barmoq - g'ildirakli xaskashni g'ildiragi vertikal tekislikka nisbatan burchak ostida o'rnatiladi va g'ildirak-barmoqli xaskashning xarakat yunalishiga qiyalik burchagiga rostlash mexanizmi sharnir yordamida o'rgich ramasi maxkamlangan.

Harakat yo'nalishiga nisbatan barmoq -g'ildirakli xaskashning qiyalik burchagiga sozlash, dalaning relyefini hisobga olgan holda xaskashni sozlash imkonini beradi. Umuman olganda, rotorli o'rish mashinasini g'ildirak barmoqli xaskashlar bilan jihozlash bir vaqtning o'zida o'rish va uyumlash ishlarini bajarishga imkon beradi, bu esa mashinaning ish unumdorligini sezilarli darajada oshiradi.



**1-rasm: O'rib -xaskashlash mashinasining ishlash jarayoni sxemasi.** O'rish apparati rotorli o'rg'ich 1 dan va g'ildirak barmoqli xaskashni 2 o'z ichiga oladi. Rama 3 ga o'rg'ich 1, rotorli kesish apparatlari 4 o'rnatilgan.

Sharnir 6 orqali xaskash ramasi 5 o'rg'ich ramasi 3 ga ulanadi. xaskashning 2 ramasiga qiya barmoq g'ildiraklari 7 ko'ndalang-vertikal tekislikda  $\beta$  burchak ostida o'rnatiladi. O'rg'ichning ramasi 3 va xaskashning ramasi 4 o'rtasida  $\alpha$  burchak ostida harakat yo'nalishiga nisbatan xaskashni o'rnatish burchagini sozlash uchun sektor 8 o'rnatilgan.



**2-rasm: g'ildirak-barmoqli xaskashni ishchi xolati vertikalga o'rnatish sxemasi**

O'rg'ich-xaskash quyidagicha ishlaydi. O'rg'ich-xaskash harakatlanayotganda, o'rg'ich 1 tomonidan o'rilgan o'simliklar kesish apparati 4 dan g'ildirak-barmoqli

xaskashga 2 uzatadi. Xaskash 2 dala notekisligidan o'tganda g'ildirak-barmoq ishchi elementi 7 ko'ndalang-vertikal tekislikda  $\beta$  burchak ostida qiyaligi tufayli relyefga yaxshi moslashadi. Barmoqli g'ildirak 7 aylanib, somonni uyumlab ketadi .  
**Xulosa.**O'rgich -xaskash mashinasini biz taklif qilayotgan qiya rotorli xaskash somonli dalalarda somonni qayta o'rib-uyumlab yig'ishtirganda nabudgarchiligi 10-15% dan 8-9% gacha kamaytirish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1.Karpenko A.N., Xalanskiy V.M. Selskoxozyaystvennyye mashiny. - Moskva: VO "Agropromizdat", 1989 g. S.214-215).
2. Mexanizatsiya rabot v sadovodstve. - Moskva: "Kolos", 1983 g. S.86-89 i Aniferov F.E., Eroshenko L.I., Teklinskiy I.Z. Mashiny dlya sadovodstva. - Leningrad: VO "Agropromizdat", Leningradskoe otdelenie, 1990 g. S.127-128).
3. [https://abc-an.blogspot.com/2010/10/blog-post\\_9761.html](https://abc-an.blogspot.com/2010/10/blog-post_9761.html)